

## ANʻANAVIY HUNARMANDCHILIK, SHOYI MATO TAYYORLASHDAGI BOSQICHLAR (JARAYON).

Xoliqova Mahliyo Alisher qizi

*Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti, tayanch doktorant*

**Annotatsiya:** Bugungi rivojlanib borayotgan Oʻzbekistondagi anʻanaviy hunarmandchilikni tiklash va qadriyatlarimizni ommaga namoyish etish, shu bilan dunyoga toʻqimachilikdagi milliy matolarni olib chiqish. Qoʻl mehnati natijasida tayyorlanadigan mahsulotning nechogʻlik qadrli va mashaqqatli ish ekani bildirish lozim. “Hunarmand” uyushmasi vakili ish faoliyati va tadbirkorlar uchun yaratayotgan mahorat darslari.

**Kalit soʻzlar:** Usta-hunarmand, toʻquv texnologiyasi, ip boʻyash, shoyi mato, aʻlo baxmal, pilla, tola, qat, ochuvchi.

## ТРАДИЦИОННОЕ ремесло, этапы подготовки шелковая ткань (ПРОЦЕСС).

**Аннотация:** Восстановление традиционного мастерства в современных развивающихся Узбекистане и публичная демонстрация наших ценностей, тем самым донося до мира национальные ткани в текстиле. Необходимо указать, насколько ценным и сложным является изделие, изготовленное в результате ручного труда. У представителя Общества ремесленников есть работы и мастер-классы, которые он создает для предпринимателей.

**Ключевые слова:** Мастерство, технология ткачество, роспись ниток, ткань шали, бахмаль, кокон, волокно, слой, открывалка.

## TRADITIONAL CRAFTSMANSHIP, STAGES IN THE PREPARATION OF SILK FABRICS (PROCESS).

**Annotation:** Restoring traditional craftsmanship in today's developing Uzbekistan and publicly demonstrating our values, thereby bringing national fabrics in textiles to the world. It is necessary to indicate how valuable and difficult the product made as a result of manual labor is. A representative of the Craftsmanship Society has work and master classes he is creating for entrepreneurs.

**Keywords:** Craftsmanship, weaving technology, thread painting, shawl fabric, velvet, cocoon, fiber, layer, opener.



Bugungi kunda Markaziy Osiyoda ikat shoyi to'qimachilikning yuragi O'zbekistondagi Farg'ona vodiysi hisoblanadi. Asosiy markaz Marg'ilon sharqning ipak poytaxti bo'lib, Farg'onadan 15 kilometr shimolda joylashgan.

Mustaqillikka yillarida to'quvchilar orasida Fazlitdin Dadajonov, to'rtinchi avlod atlaschi, otasi Sovet Ittifoqi davridagi Yodgorlik ipak kombinatida bosh dizayner bo'lgan. Bunday hunarmandlar Marg'ilonning deyarli har bir xonadonida uchratshimiz mumkin. Ulardan yana biri o'z nomibilan dunyoga tanilgan usta hunarmand Rasuljon Mirzaahmedov.

Rasuljon Mirzaahmedov – to'qqizinchi avlod atlas to'quvchisi, uning otasi Turg'unboy ham Yodgorlik zavodida konstruktor bo'lgan. Rasuljon ijodining o'ziga xosligi shundaki, u ipak mato ishlab chiqarishning barcha asosiy usullarini mukammal biladi. Shu tufayli u respublikamizda tan olingan abrband ustalaridan biriga aylandi. U Marg'ilon abr ipakdo'zligining mumtoz san'ati eng yaxshi an'alarini nafaqat asrab-avaylash, balki nufuzini oshirishga ham erishdi. O'zining Xorazmga qilgan ekspeditsiyalari natijasida yo'qolib borayotgan a'lo baxmal matosi ishlab chiqarishni qayta yo'lga qo'ydi.

Balki bugungi kunda bu an'anaviy to'qish texnologiyasi, bo'yash texnikasi va abr naqshlarini yaratish bo'yicha chuqur va har tomonlama bilimga asoslangan qadimiy o'zbek matolarining ko'plab yo'qolgan turlarini qayta tiklagan yagona abrbandchidir. Bilimlari: naqsh tatbiq etish, ip bo'yash san'atini otasi mashhur usta Turg'unboy Mirzaahmedovdan o'rgangan. To'quv texnologiyasini usta Nabijon Toshtemirovdan o'rgangani haqida hozirgacha takrorlaydi.

R.Mirzaahmedov o'zining bilimi, g'ayrati va qadimiy an'analarni ijodiy idrok etishga intilishi tufayli klassik va zamonaviylikning uyg'unligini yaratishga muvaffaq bo'ldi. Tuzuvchi va abr matolari uchun naqshlar muallifi sifatidagi ijodiy faoliyatining nisbatan qisqa davrida yuzdan ortiq original naqshlar yaratdi. Ular orasida adras matolarining "tumor", "ko'zacha", "tanga", "chayon" kabi mashhur naqshlari bor.


Bundan ikki yil avval Mirzaahmedov Rasuljon Turg'unboyevich marg'ilonlik milliy mato atlas va adras tayyorlaydigan hunarmandlar ichida Marg'ilon shahrida birinchi bo'lib, Davlat mukofoti "Shuhrat" medaliga sazavor bo'lgan.<sup>1</sup> Hozirda u "Hunarmand uyushmasi" Farg'ona viloyati boshqarmasi boshlig'i sifatida har yili Marg'ilon shahrida Hunarmandchilikni rivojlantirish markazi bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan an'anaviy hunarmandchilik, dizayn va tadbirkorlik bo'yicha milliy trening bo'lib o'tadi.

Trening YUNESKO va Yevropa Ittifoqining "Afg'oniston, Markaziy Osiyo va Eronidagi Ipak yo'li merosi yo'laklari – Yevropa madaniy meros yilining xalqaro o'lchovi" loyihasi doirasida tashkil qilinadi.<sup>2</sup> Dastur davomida tadbirkorlikdagi ishlab chiqarilgan

<sup>1</sup> Handicraftman.uz

<sup>2</sup> m.kun.uz





mahsulotlarni ommaga olib chiqish va uni bozor sharoitida narxlash mavzusida biznes (ish yuritish) darslari Sardor Gaziyev, biznes-trener, san`at menejeri va prodyusser olib borsa, amaliy bilimlar: kashtachilik - Madina Kasimboyeva, dizayn - Marhamat Umarova, chitgarlik - Alisher Ahmadaliyevlar tomonidan o`tkazildi. Qatnashchilar 60 nafarni tashkil etib, ular teng uch guruhga bo`lingan holda, amaliyot darslariga taqsimlandi.

Chitgarlik san`ati deganda, bo`z matoga o`yma yog`och qolip yordamida gul bosish kasbi, tushunib, tasavvur qilishimiz mumkin. Chitgarlar ilgari barcha jarayon (to`qish, bo`yash va gul bosish) ni ustaxonalarda bajarishgan. Mato dastlab qozonda qaynatilib olingan, maxsus tezob (buzg`unch) bilan ishlov berilib, so`ng quritilgan. Matoga gul qo`lda yog`och qolip yordamida (naqshning asosiy shakli qattiq nok yog`ochidan ishlangan qolip bilan qora tusda) tushirilgan. So`ng mato yana ma`lum vaqt davomida rangli suvda qaynatilib, oqar suvda chayilgan. Tayyor, gulli chitga qo`shimcha ranglar ham berilgan (yetti xilgacha). Chitga anorgul, tol bargi, kizil gul, shoxchalar va boshqa gullar tushirilgan.

XIX asr II - yarmidan Toshkent badiiy kashtalaridan olingan palak nusxa keng tarqalgan. O`rta Osiyo bozor fabrikalarida ishlab chiqarilgan chitlar ko`payishi munosabati bilan Chitgarlik san`ati asta sekin 1950-yillarda barxam topdi; faqat 80-yillardan otabobolarining kasbini davom ettirgan toshkentlik ustalar (H. Raximov, A. Raximov va boshqalar) ijodida qayta tiklana boshladi. 90-yillar Chitgarlikda o`ziga xos rivojlanish bosqichi boshlanadi: choyshab, dasturxon kabi badiiy buyumlar bilan bir qatorda zamonaviy liboslarni ichida ham chitgarlik san`ati keng qo`llaniladi. An`anaviy shakldagi "oy", "yulduz", "bodom"simon gullar bilan birga islmiy naqshlardan ham keng foydalaniladi, mato ranglarining uyg`unligi bilan ajralib turadi.

Usta - hunarmand Alisher Ahmadaliyev bilan bo`lgan suhbat jarayonida avvalgi va hozirgi vaqtdagi mato ishlab chiqarish va unga rang berish jarayonidagi farqlar haqida so`rab intervyu olindi. Aytishlariga ko`ra hozirgi rivojlanayotgan texnologiyalar davrida qo`l mehnatiga bo`lgan talab, yuqori darajada bo`lmasa ham, yetarlicha mavjud. Insonlar dunyoqarashining kengayishi natijasida qo`l mehnati qanchalik qadrlanishi borasida fikrlay boshladilar. Yaratilgan mahsulot tabiiylik va gigienik, sifat tomonlarga yuqori o`rinda turishini hisobga olgan holda talab ham o`smoqda deydi. Mahsulot nafaqat o`zimizdagi aholi va savdogarlarga balki chet ellik tadbirkorlarga ham buyurtma asosida tayyorlanishi va tayyor mahsulot uchun qancha vaqt va bosqichlardan o`tishi haqida batafsil so`zlab berdilar.





1-rasm. Pilladan tola olish.

Xulosa o`rnida aytadigan bo`lsak, O`zbekiston dunyo sivilizatsiyasi tarixi zarvaraqlarida nomi bitilgan buyuk davlatlarning vorisi. Asrlar davomida uning zaminida ajoyib badiiy asarlar, me`moriy va san`at yodgorliklari yaratilgan bo`lib, ular hozirgacha butun dunyodagi O`zbekiston xalqlari madaniyati ixlosmandlarini hayratga soladi. Mazkur merosni har taraflama va xolis o`rganish bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

Bugungi kunda ishlab chiqariladigan shoyi matolar ham madaniy meros bo`lib, tarixdan to hozirgacha uni ishlab chiqarish yana an`anaga aylanmoqda. Uning tayyorlanish jarayoniga keladigan bo`lsak, bozorga chiqqan savdogarlar qo`lidagi tayyor 240 metrlik mato misol shoyi atlasni tassavvur qiladigan bo`lsak, u sotuvga chiqadigan holatga kelgungacha gazlama bir necha bosqichlarda o`tib juda katta mehnatni o`z ichiga olishini bosqichma bosqich sanab o`tamiz. Nima uchun aynan 240 metr degan savol tug`ilishi tabiiy sababi, usta-hunarmandlar asosan matoni 240 metrlik standart o`lchamda tayyorlanar ekan. Shoyi uchun kerak bo`ladigan birinchi manba bu tut daraxtning barglaridan oziqlanuvchi pilla qurti, u o`z hayoti davomida pilla yaratish bilan mashg`ul bo`ladi. Tayyor pilla katta hajmli qozonlarga solinib tola olinadi. 1-rasm. Olingan tolalarni davrachi o`rab qatchiga yetkazib beradi. Tola qat (orasida 2 metrlik masofa bo`lgan ikkita o`rtacha qalinlikdagi temir truba) ustiga qatlab olinadi, belgilab olingan uzunlikdagi matoni qat ustidan o`rab qatlanadi, u 2 metrlik orasiga qora kuyadan hosil bo`lgan qalamda naqsh tushiriladi va temirdan aylanib qaytgan joyida bog`langan joyi rang olmay oq holatda qoladi. Usta tilida bu joy skat deb etilsa, bizda uni xalq orasida ajina deyiladi. Uni tayyor mato ustida ham biz uni ko`rishimiz mumkin. Qat orasida uch qator boshda oxirigacha bog`langan livitlar bo`lib, uning har birida 32 tadan tola juftlashadi va biri ikkinchisiga qo`shilmaydi. Livitlar har qatori 100tadan bo`lib, 2 metr orasida 3200ta tola mavjud. Qatga tayyorlab qo`yilgan ipak tolalar berilgan naqsh ya`ni matoga tushiriladigan dizaynga qarab tolalar ranglarga ajratiladi va alohida ranglar bog`lab, rang berish uchun mahkamlab bir-birdan ajratiladi. 2-



rasm. Matoga rang berish uchun bitta rang tanlanadi. Masalan naqsh bo'yicha sariq rang bo'lsa faqat sariq rang tushishi kerak bo'lgan joy mahkamlab bog'langan yelimli lenta (skotch) ochiladi va tabiiy tayyorlangan rangga solinadi. Rangning och yoki to'qlik darajasini chiqarish uchun qozon (mis yoki sirlangan)ga qayta qayta solinadi. Masalan to'qroq sariq chiqarish uchun qozonga uch marotaba to'plam tolalarni har 5 soniya oralig'ida solib olinadi.

Naqshdagi ikkinchi rangni berish uchun sariq olgan joy qayta yelimli lenta bilan bog'lanib, yashil rang olishi kerak bo'lgan joyi ochiladi, rang tayyorlangan qozonga solinadi. Qozondagi rangning harorati 40 va 60°C gacha bo'lishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ochuvchi, ishni ochib beradi, buning ma'nosi bo'yalgan ranglarni yelimli lentada ochib beradi.

Gulabardor to'quvchiga tolalarni tayyorlab to'qish uchun taxlab beradi. To'quvchi to'qish davrida tolalarni taramlab tekshirib, paxta ip bilan dastgoh ustida to'qiydi. Tolalarni dastgoh ustiga qo'yganda uni har uch yoki to'rt metr masofada o'tqazib, ikki metr balandlikdagi taxta ustida olib pastga to'rtib turishi uchun og'irroq bo'lgan tosh osib qo'yiladi. Maqsad keladigan tolalarni tarang ushlab turish va ketma ketlikni yo'qotmaslik kerak. To'quvchi har daqiqadan e'tiborli bo'lishi ish jarayonida tolalarni kuzatishi ishni unumli borishini ta'minlaydi.

Dastgohda uch xil ko'rinishda bo'lishi uning sakkiz tepki, to'rt tepki va ikki tepki bo'lishiga bog'liq. Sakkiz tepkida mato oldi va orqa tomoni bir biridan farq qilmaydi, Matoga qaraganimizda oldi ham orqa ham bir xildek to'qiladi.

To'rt tepkilik matoda oldi va orqasida salgina farqi bo'lib unchalik ko'zga tashlanmaydi. Ikki tepkilik mato oldi va orqasi bir ko'rishda ajratish mumkin. Bir tomon yuza sirtqi bo'lsa tegi aksincha qoladi.



2-rasm. Qatga qatlangan, naqsh tushirilgan, livitga ajratilgan tolalar.



3-rasm. Rasuljon Mirzaahmedov shaxsiy kolleksiya namunalari.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Handicraftman.uz
2. Rasuljon Mirzaahmedov, tabiiy bo'yoqlar siri 2020y.
3. Alisher Ahmadaliyevdan olingan intervyu.

